

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 189 (1250), 2024-yil 17-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON – GERMANIYA MULOQOTIDA YANGI FORMAT: O‘ZARO ISHONCH VA HURMAT RUHIDAGI HAMKORLIK ANIQ NATIJALAR BILAN ASOSLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols 15-16-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

O‘ZBEKISTON – GERMANIYA HOKIMLIKKA TAYYORLASH MAKTABINING OCHILISH MAROSIMI
2024-yil 16-sentabr, SamarqandERÖFFNUNG DER USBEKISCH-DEUTSCHEN VERWALTUNGSSCHULE FÜR STADT- UND REGIONALBEHÖRDEN
16. September 2024, Samarkand

Tashrifning asosiy tadbirlari Samarqand shahridagi Kongress markazida o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols yuzma-yuz muloqot qildilar. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvda atroflicha muhokama qilindi.

Muzokaralar yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols Qo‘shma deklaratsiyani qabul

qildilar. Shuningdek, ikki tomonlama 8 ta hujjat, jumladan, migratsiya va mobillik sohasida har tomonlama sheriklik to‘g‘risida hukumatlararo bitim, o‘ta muhim minerallar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya, transport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols 16-sentabr kuni Samarqand shahrida ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va banklari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdilar.

Tadbirda Germaniya Iqtisodiyot va iqlimni muhofaza qilish vazirligi

parlament davlat kotibi Mixael Kellner, Germaniya iqtisodiyotining Sharqiy qo‘mitasi boshqaruvchi direktori Mixael Xarms, “KNAUF”, “CLAAS”, “Mangold Consulting”, “Gunter Papenburg”, “Siemens Energy”, “Linde Group”, “Aurubis”, “FALK PORSCHE”, “Metso”, “Edison technologies”, “Ernst Klett”, “Siemens Healthineers”, “Herrenknecht”, “DB Engineering & Consulting”, “Svevind Energy Group”, “Rhenus”, “HMS Bergbau”, “Textima” kabi yetakchi kompaniyalar hamda “KfW Development Bank”, “AKA Bank” banklarining rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari uchrashuvning ishtirokchilarini samimiy qutlab, tadbir tarixiy Samarqand shahrida o‘tkazilayotgani ramziy ma‘noga ega ekanini ta‘kidladi.

Kecha bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi samarali muzokaralar yakunlariga yuksak baho berildi. Ularda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining iqtisodiyot tarmoqlarini chuqur transformatsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha asosiy ustuvor yo‘nalishlari qo‘llab-quvvatlangani alohida qayd etildi.

Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan Sanoat va texnologik sheriklik bo‘yicha qabul qilingan strategik dastur doirasida qo‘shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini qo‘llab-quvvatlash hamda jadallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi kelishuvlarga erishilgani uchrashuvning asosiy natijasi bo‘lgani ta‘kidlandi.

O‘zbekiston va Germaniya ishbiarmon doiralarning faol va amaliy ishtirokida o‘zaro manfaatli sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Bu “yashil energetika”, kimyo sanoati, “yashil vodorod” ishlab chiqarish, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, farmatsevtika sanoati va boshqa sohalarda sanoat kooperatsiyasini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, o‘ta muhim mineral resurslar konlarini o‘zlashtirish va ularni chuqur qayta ishlash, keyinchalik Germaniya va uchinchi mamlakatlar bozorlariga eksport qilish uchun yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda Germaniya kompaniyalarining ishtiroki istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi.

Energetika, transport-kommunikatsiya, kommunal va turizm infratuzilmasi obyektlarini modernizatsiya qilish, sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalarini xususiy lashtirish dasturida ishtirok etish, shuningdek, mamlakatimizda sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ekologiya sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish ham hamkorlikning asosiy yo‘nalishlariga kiradi.

Uchrashuvda Prezidentimiz Germaniya biznesining O‘zbekistondagi yirik

kompaniyalar bilan yaqin hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhimligiga alohida e‘tibor qaratdi.

Shu ma‘noda, qurilish materiallari ishlab chiqarish, metallurgiya, energetika, kimyo, transport infratuzilmasi, qishloq xo‘jaligi va mashinasozlik, tibbiyot va boshqa sohalarda yangi tashabbuslarni ishlab chiqish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishni davom ettirish kerakligi ta‘kidlandi.

— Uchrashuvimizni yangi formatda tashkil etdik. O‘zbekiston tomonidan, asosan, so‘nggi yillarda mustahkam oyoqqa turib olgan va Germaniya biznesining munosib hamkori bo‘lgan xususiy sektor vakillari ishtirok etmoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

So‘zining yakunida O‘zbekiston Prezidenti barcha ishtirokchilarga belgilangan rejalarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘z navbatida, Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols mamlakatimiz bilan ko‘p qirrali munosabatlar izchil rivojlanayotganini yuqori baholab, mavjud sheriklik aloqalarini mustahkamlash muhimligini ta‘kidladi hamda Germaniya ishbiarmon doiralari vakillarini qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirishda dadil ishtirok etishga chaqirdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri qo‘shma Boshqaruv kadrlarini tayyorlash maktabining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdilar. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Xanns Zaydel jamg‘armasi hamda Bavariya davlat boshqaruvi maktabi bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Mutasaddilar videoaloqa orqali yetakchilarga loyiha haqida batafsil ma‘lumot berdilar. Uning asosiy maqsad va vazifalari mamlakatimiz hududlarida boshqaruv kadrlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish borasidagi salohiyatini oshirishdan iborat.

O‘zbekiston — Germaniya sammiti yakunida daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols Kongress markazidagi xiyobonda birgalikda daraxt ekdilar.

Bu O‘zbekiston — Germaniya ko‘p qirrali munosabatlarida yangi bosqich boshlangani, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik rishtalari mustahkamlanib borayotganining ramzi bo‘ldi.

Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols Samarqanddagi Xalqaro turizm akademiyasiga tashrif buyurdi.

2023-yilda Samarqand shahrida BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida ochilgan akademiya turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha yuqori malakali va talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash markazi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Akademiya yaqinda birinchi akademik yil boshlandi va bitta dastur — mehmondo‘stlik menejmenti bo‘yicha 20 nafar tinglovchi saboq olmoqda. 2025-yil yanvardan esa yana 200 nafar mutaxassis tayyorlanadi. Ikkinchi akademik yilning boshlab mavjud uch yo‘nalishda 60 nafar trener va 1200 nafar mutaxassis o‘qitiladi.

O‘quv muassasasi bitiruvchilariga BMT Turizm tashkilotiga a‘zo davlatlar tomonidan e‘tirof etiladigan diplomlar beriladi.

Oliy martabali mehmon akademiyada yaratilgan sharoitlar hamda O‘zbekistonda zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar bilan tanishdi.

Shu bilan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Sholsning mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakunlandi.

Aytish mumkinki, mazkur tashrif o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan, qog‘ozdan amaliy jarayonlarga o‘tgan O‘zbekiston — Germaniya munosabatlarining yangi davrida navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
G‘olib HASANOV,
O‘ZA maxsus muxbirlariO‘ZBEKISTON PREZIDENTI
“MARKAZIY OSIYO – GERMANIYA”
SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 17-sentabr kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya yetakchilarining ikkinchi uchrashuvida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi.

Sammitda mintqa mamlakatlarining Germaniya bilan ko‘p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya, texnologiyalar, transport-kommunikatsiya va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, Germaniyaning

yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari bilan qo‘shma uchrashuv o‘tkazish rejalashtirilgan.

Ta‘kidlash joizki, “Markaziy Osiyo — Germaniya” formatidagi birinchi sammit o‘tgan yilning 29-sentabr kuni Berlin shahrida o‘tkazilgan edi.

O‘zA

Markaziy Osiyo — Germaniya:

KO‘P TOMONLAMA SHERIKLIKNI
YANADA RIVOJLANTIRISHNING
MUHIM BOSQICHI SARI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-sentabr kuni Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo — Germaniya” shaklidagi ikkinchi oliy darajadagi sammitda ishtirok etadi.

Ushbu formatdagi birinchi sammit 2023-yil 28-30-sentabr kunlari Germaniyada bo‘lib o‘tgan edi. Davlatimiz rahbari Germaniyaga amaliy tashrifi doirasida qator tadbirlarda ishtirok etdi.

“Markaziy Osiyo — Germaniya” muloqot platformasini ishga tushirish tashabbusi 2023-yil boshida Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols tomonidan ilgari surilgan.

Davomi 2-betda

Davlat dasturi — amalda

YANGILANAYOTGAN JAMIYAT QIYOFASI

STRATEGIK HUJJATLAR REAL HAYOTDA O‘Z NATIJASINI
NAMOYON ETAYOTGANIDAN DALOLAT

Xalqimizning erkin va farovon yashashi, yangi O‘zbekistonda barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga iqtidori va salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu borada ko‘zlangan marralarga erishishda har bir yilga o‘ziga xos nom berib, shu asosda davlat dasturlarini shakllantirish va unda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarilayotgani samara bermoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasidagi ishlar ham jamiyatimizni siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilishda muhim yutuqlarga zamin bo‘lmoqda.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor TULYAKOV bilan shubhatimiz davlat dasturining bir qator yo‘nalishlarida joriy yilning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar, oldinda turgan vazifalar xususida bo‘ldi.

Davomi 2-betda

26 YIL DEGANDA O‘ZBEKISTON PASPORTIGA EGA BO‘LDIM

Shukrona

Qaynotam asli Qirg‘izistonning O‘sh shahrida tug‘ilgan. Taqdir taqozosi bilan O‘zbekistonga kelib, shu yerlik bo‘lib ketgan. Otam bilan yaqin do‘st bo‘lgani uchun katta o‘g‘liga meni so‘rab berganida “Bir o‘zim u yoqda qolib ketmay, do‘stligimiz yo‘qolmasin, bolalarimiz sabab bordi-keldi qilib turamiz”, degan ekan.

Davomi 2-betda





GERMANIYANING YANGI O'ZBEKISTONGA YANGICHA QARASHI OBYEKTIV HAQIQATDIR

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Respublikasi Federal

Kansleri Olaf Sholsning 15-16-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan muzokaralari yakunlari yuzasidan xalqaro tashkilotlar rahbarlari va ekspertlar "Dunyo" axborot agentligi uchun sharh berdi.

Nayjel GULD-DEVIS,
Buyuk Britaniyaning Xalqaro
strategik tadqiqotlar instituti
(IISS) Rossiya va Yevrosiya
bo'yicha loyiha menejeri:

— O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar yuqori rivojlanish sur'atini namoyon etmoqda va u yangi strategik bosqichga ko'tarildi. Germaniya nafaqat muhim iqtisodiy sherik, balki murakkab xalqaro ziddiyatlar jarayonida suverenitet va mustaqillikni mustahkamlashga intilayotgan O'zbekistonning ittifoqchisidir.

Darhaqiqat, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi asosiy davlat sifatidagi geosiyosiy ahamiyati ortib bormoqda. Germaniya bilan aloqalar mintaqada barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin.



Xalqaro maydon tobora ko'p qutbli bo'lib borayotgan bir paytda Germaniya O'zbekiston uchun ishonchli hamkor hisoblanib, respublikaning iqtisodiy va siyosiy uqlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy darajadagi aloqalarning faollashgani xalqaro hamjamiyat uchun O'zbekistonning jahon siyosatidagi o'z mavqegini mustahkamlash niyatidan dalolat beruvchi muhim signaldir.

Germaniya bilan iqtisodiy sheriklik nafaqat investitsiya, balki O'zbekistonning strategik barqarorlikka qo'shayotgan hissasidir. Global beqarorlik va o'zgaruvchan ta'minat zanjirlari sharoitida yaqin hamkorlik O'zbekistonga iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va infratuzilmani modernizatsiya qilishda ko'mak beradi hamda har ikki davlat uchun uzoq muddatli foyda keltiradi.

Kelajakning global muammolarini hal eta oladigan intellektual mutaxassislar sinfini shakllantirishda mamlakatlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar muhim o'rin tutadi. Xalqlar o'rtasida mustahkam iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni yaratuvchi mehnat migratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish ham alohida ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, Federal Kansler Olaf Sholsning rasmiy tashrifi nafaqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikka, balki siyosiy muloqotga, O'zbekistonni Germaniyaning Markaziy Osiyodagi muhim sheri sifatidagi mavqegini yanada mustahkamlashga yangi sur'at bag'ishlaydi. Shuningdek, geosiyosiy keskinlik kuchayib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi yaqin aloqalar mintaqada barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo — Germaniya:

KO'P TOMONLAMA SHERIKLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING MUHIM BOSQICHI SARI

► Boshlanishi 1-betda

Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu tashabbus O'zbekiston Prezidenti va Markaziy Osiyoning boshqa yetakchilari tomonidan Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shniqlik va do'stona munosabatlarni o'rnatish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar tufayli erishilgan iqtisodiy va siyosiy salohiyatni mustahkamlash nuqtayi nazaridan rasmiy Berlinning mintaqaga qiziqishi ortib borayotgan tasdiq bo'ldi.

Mazkur formatning asosiy maqsadi Germaniya va mintaqa davlatlari o'rtasida siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, energetika va xomashyo bo'yicha sheriklikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishdan iborat. Muloqotning boshlanishi rasmiy Berlin siyosatini va Germaniyaning Yevropa Ittifoqiga raisligi davrida 2007-yilda qabul qilingan va Germaniya tashabbusi bilan 2019-yilda yangilangan YElning Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasini ilgari surishda muhim amaliy qadamdir.

Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols ushbu platforma o'z vaqtida va dolzarb muasalarni muhokama qilish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, mazkur format ishtirokchi mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sish

qo'yish tashabbusini ilgari surdi, bu formatning birinchi sammiti yakunlari bo'yicha imzolangan Qo'shma bayonotda ham qayd etildi.

Birinchi sammitda Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Bular — investitsiyaviy, innovatsion va texnologik aloqalar hamda almashinuvni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, transport-kommunikatsiya yo'nalishida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, "yashil" kun tartibini ilgari surish, Germaniya standartlariga muvofiq turli tarmoqlar uchun mutaxassislarni tayyorlash va boshqa sohalardir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari Germaniya tomonidan strategik mintaqaviy sheriklikni yo'lga qo'yish, ushbu formatda munozam uchrashuv va maslahatlashuvlar o'tkazib borish taklifini qo'llab-quvvatladilar.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohasidagi hamkorlikning yangi dinamikasi, yaqin madaniyatlararo va gumanitar aloqalarning rivojlanishi, albatta, Germaniya — Markaziy Osiyo hamkorligi kun tartibini sifat jihatidan to'ldirishga va natijada butun mintaqaviy o'ziga xoslikni mustahkamlashga hamda Markaziy Osiyoni

Germaniyaning "Markaziy Osiyo plyus" shaklidagi muloqotga faol jalb etilishi jadal rivojlanayotgan mintaqamizning xalqaro aloqalar va jahon iqtisodiy munosabatlari tizimiga integratsiyalashuvining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilishi kutilmoqda.



sur'atlarini qo'llab-quvvatlash va har bir davlatning umumiy jihatlari, shuningdek, milliy xususiyatlari hamda manfaatlarini hisobga olgan holda davlatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Rasmiy Berlin mintaqamizning o'sib borayotgan rolini inobatga olgan holda Germaniya va Markaziy Osiyo o'rtasida mintaqaviy strategik sheriklikni yo'lga

istiqbollari va uzoq muddatli strategik sherik sifatida namoyon qilishga yordam beradi. Germaniyaning "Markaziy Osiyo plyus" shaklidagi muloqotga faol jalb etilishi jadal rivojlanayotgan mintaqamizning xalqaro aloqalar va jahon iqtisodiy munosabatlari tizimiga integratsiyalashuvining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

"Dunyo" AA



Chjan CHENZI,
XXRning MDH mamlakatlari bilan
ilmiy-texnologik hamkorlik bo'yicha
Gaudun uyushmasi bosh kotibi
o'rinbosari:

— O'zbekiston Prezidenti va Germaniya Federal Respublikasi Federal Kanslerining navbatdagi uchrashuvi, shuningdek, 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida

bo'lib o'tgan savdo-iqtisodiy tadbirlar O'zbekiston — Germaniya hamkorligi barqaror va serqirra rivojlanayotgan dalolat.

Bugungi kunda Germaniya O'zbekistonning Yevropa bilan ko'p qirrali va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy sheriklaridan biri ekaniga barchamiz guvohmiz. So'nggi yillarda oliy darajadagi munosabatlarning jadallashayotgani va iqtisodiyotning barcha jabhalarida erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilayotgani o'zaro manfaatli hamkorlikning amaliy kengayishini ta'minladi.

O'zbekiston Prezidenti va Germaniya Federal Respublikasi Federal Kanslerining ikki mamlakat yetakchi kompaniya va banklari vakillari bilan qo'shma uchrashuvda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiq nemis kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Aniqki, O'zbekiston va Germaniya kompaniyalari o'rtasida "yashil" energiya, kimyo sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika va to'qimachilik sanoati kabi sohalardagi chuqur hamkorlik har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi.



Muhammad VADI,
Misrning "Sada al Balad" axborot
agentligi bosh muharriri:

— O'zbekiston rahbariyati murakkab geosiyosiy sharoitga qaramay, barcha xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli va pragmatik aloqalarni rivojlantirmoqda. Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Germaniya Federal Respublikasi Federal Kansleri rasmiy tashrif bilan Samarqandda bo'ldi. Tashrif davomida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

va Federal Kansler Olaf Shols o'rtasida imzolangan ikki tomonlama manfaatli shartnomalar xorijiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalar olib borilayotganining dalilidir.

O'zbekiston Prezidenti oliy darajadagi delegatsiyalarni qabul qilish chog'ida xorijiy davlatlar biznes doiralari vakillari bilan uchrashuvlarni tashkil etish, shuningdek, biznes-forumlar o'tkazish an'ana aylandi. Mazkur tadbirlarning natijasi o'laroq mamlakatga investorlar kirib kelmoqda, turli sohalarda istiqbolli loyihalar amalga oshirilyapti, ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlar eksporti ortmoqda.

O'zbekiston va Germaniya yetakchilari ikki mamlakat ishlab chiqarish doiralari vakillari bilan uchrashuvda "yashil" energiya, kimyo sanoati, "yashil" vodorod ishlab chiqarish, mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik va farmatsevtika sanoati kabi sohalarda o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berildilar.

O'zbekiston fuqarolarining Germaniyaga qonuniy asosda borishi va rasmiy ishga joylashishini soddalashtirish imkonini beruvchi migratsiya sohasida har tomonlama sheriklik to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolangan ushbu tashrifning muhim voqealaridan biri bo'ldi.

Maks SEY,
Malayziyaning "Kingsley Strategic
Institute" ijrochi direktori:

— Germaniya Federal Respublikasi Federal Kansleri Olaf Sholsning O'zbekistonga tashrifini ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholash kerak.

Germaniya azaldan O'zbekiston uchun muhim savdo sheri bo'lib kelgan va bu tashrif ushbu munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, 2024-yilning birinchi yarmida ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirib olish hajmi 506,3 million AQSH dollarini tashkil etdi. Nemis kompaniyalari uchun mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan energetika, infratuzilma va texnologiya sohasidagi loyihalarga asosiy e'tibor qaratilgan.



Shu bilan birga, tashrif chog'ida siyosiy hamkorlik va strategik sheriklikni chuqurlashtirish masalalari muhokama Germaniyaning geosiyosiy strategiyasida O'zbekistonning ahamiyatini yana bir bor ta'kidladi.

Tashrif chog'ida imzolangan 10 ga yaqin ikki tomonlama hujjatlar, jumladan, Qo'shma deklaratsiya va 2024-2026-yillarga mo'ljallangan Texnologik sheriklik va sanoat kooperatsiyasi dasturi qabul qilinishi alohida ta'kidlash kerak. Ishonchim komilki, ushbu kelishuvlar energetika sohasidagi sheriklikka, logistika va ta'lim almashinuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tashrifning muhim jihatlardan yana biri — malakali o'zbek ishchilarining Germaniyada faoliyat yuritishiga qaratilgan migratsiya

bo'yicha bitimning imzolinishi bo'ldi. Ushbu kelishuv Germaniyadagi ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etish va O'zbekiston fuqarolari uchun qonuniy migratsiya yo'llarini taqdim etishi bilan har ikki davlat uchun ham muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda sifat jihatidan yangi, o'zaro anglashuv va ishonchning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniya Federal Respublikasi Federal Kanslerining O'zbekistonga tashrifi ikki davlat va butun mintaqaning uzoq muddatli manfaatlariga mos keladigan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash hamda dolzarb yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

"Dunyo" AA

26 YIL DEGANDA O'ZBEKISTON PASPORTIGA EGA BO'LDIM

► Boshlanishi 1-betda

Kelin bo'lib kelganimdan, fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasini olganman. Qayerga bormay, albatta, o'sha bir parcha qog'ozni ko'tarib yurardim. O'zimdand ham uni ko'proq ehtiyotlaganman.

Shavkat Mirziyoyev Prezident bo'lgach, juda katta xayrli ishga qo'l urdi. Men kabi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yelkasiga o'tob tegdi. 26 yil deganda O'zbekiston pasportiga ega bo'ldim. Kimlar uchundir bu oddiy holatdir, biroq chorak asr pasportsiz yurgan kishi uni qo'lga olib qo'ziga surtarkan. Shuning uchun Prezidentimizdan behiyo minnatdorman. Yaqinda umra safarida bo'lganida ham ana shu baxtli kunlarim ko'z oldimdan o'tib, davlatimiz rahbarini chin yurakdan duo qildim.

O'zbek-qirg'iz munosabatlari tobora mustahkamlanib, chegaralar ochilayotgani esa yanada ezgu ish bo'ldi. Chunki qanchadan qancha qizlar men kabi ota-ona diydoriga zor bo'lib o'tayotgan edi. U yoqda esa ota-onalar farzandiga mushtoq.

Otam vafot etganini xabar qilishganida chegaralar yopiqligi bois, padari

buzrukvorimni so'nggi bor ko'ra olmaganman. Rasmiyatchilik, qog'ozbozlik ishlari haddan ortiq edi. Sababini aytib tursangiz ham, holingiz ma'lum bo'lib tursa ham sizga ishonishmasa, dod deb baqirgiz keladi. Qandaydir ma'lumotnomalar, bir parcha qog'ozlarni deb janozaga yetib borolmadim. Ikki kun o'tgach, bir amallab otamsiz huvillagan uyimizga kirib borganman. Yaxshiyamki, qolgan farzandlar u yoqda edi. Padarimiz so'nggi kunlarini yashayotganida jigarlarim yo'qligimni bildirmaslikka harakat qilsa-da, otam "Faridand tez-tez xabar olib turinglar", deb intiq bo'laveribdi.

Sho'rlik onam 2010-yili "Mabodo menga biror kor-hol bo'lsa, sen bilan ko'risholmay qolaman. Mendan rozi bo'lg'in, qizim", deganida keng dunyo ko'zimga tor bo'lib ketgan.

Bag'rikeng o'zbek xalqi qirg'izistonlik vatandoshlarimizdan borini ayamagan. Shuning uchun ham men O'zbekistonga kelin bo'lib kelganim, shu yerning fuqarosiga aylanganimdan juda baxtiyorman. "Qorasuv" posti ochilayotgan payti odamlarning yuz-ko'zidagi tabassum, quvonch yoshi mening ham qalbimga ko'chdi. Hozir ota-onam hayot bo'lmasa-da, tug'ilgan



joyimga bemalol, hech qanday muammosiz borib kelish baxtiga yetishdim. Turmush o'rtog'im, farzandlarim ham xursand. Chunki ular ham diydor iztirobi, sog'inch alamida yurganida nima qilishni bilmay qolar, ko'nglimni ko'tarishga chog'lanardi. Inson uchun eng og'iri yaqinlar diydoridan uzoqlashish ekan. Endi esa Qirg'izistonga barchamiz birga, oilaviy borib kelaveramiz. Shu kunlarga yetkazganiga ming shukr!

Farida HASANOVA
Andijon viloyati

QARDOSHLIK RISHTASI HECH QACHON UZILMASIN

Shunisiga ham shukr, degan bobom bizni Qirg'izistonga yuborgisi kelmagani. Onam boshqa ayol bilan turmush qurishini otamdan iltimos qilgan. Boshqa oilasi bo'lsa-da, otam bizni biror kun tashlab ko'ygani yo'q. Ulg'ayib, Toshkentdagi farmatsevtika institutiga o'qishga kirdim. Otam shartnoma pulini to'lashdan tashqari onam ikkalamizga poytaxtdan uy sotib olib berdi. Hatto oziq-ovqatimizgacha ta'minlab turdi. Onam Qirg'izistonga tez-tez borib, otamning oilasidan xabar olib turgan. Chegaralar batamom yopilganidan keyin ayylanma yo'llar bilan bo'lsa-da, qo'shni davlatga borib turdi. Aloqani uzmadim.

Otamni juda kam ko'rgan bo'lsam ham ko'p sog'inaman. Boshqa yurtda yashab turib ham g'amxo'rlik qilayotgan insonga farzandlik mehri balar. Turmushga chiqqanimdan keyin 1-2 marta bora oldim. Chunki qo'shni tumanning bir chetiga borib chegaradan o'tish, har xil mojarolarga duch kelish oilali ayolga to'g'ri kelmas ekan.

Uyimizga juda yaqin bo'lgan "Qorasuv" posti ochilganini eshitib, rosa xursand bo'ldim. Onamning yoshi o'tib, avvalgiday g'ayrati qolmagani bo'lsa ham ko'ngli to'q. Chunki endi men bilan birga yaqin yo'ldan borib kela oladi. Uydagilar ham bunga rozi bo'lishi aniq. Otam esa nabiralarini ko'rib, boshi ko'kka yetadi. Shu paytgacha

ularni telefon orqali ko'rgan, xolos. Davlat xizmatida ishlagani uchun telefonda ham uzoq gaplashishga ba'zan vaqti bo'lmay qoladi.

Ko'prikdan odamlar o'ta boshlagan kuni qizlarim "Oyjon, endi bizniyam Qirg'izistonga olib borasizmi? Bobomni ko'rib kelamizmi?" deb rosa quvonadi. Avvalroq ular uchun xorijda chiqish pasporti ham olgandik. Endi shunday ham o'tib qaytaveramiz.

Mahallamizda Qirg'izistondan kelin bo'lib tushganlar, u yoqqa qiz uzatganlar juda ko'p. Hammasi xursand. Post ochilgan kuni bayram bo'lib ketdi. Hamma bir-birini tabrikladilar. Boshidan o'tgan biladi deganlaridek, darddosh, dildosh bo'lib ketishgan. Birov yurtiga borib kelsa, hammasi hol so'raydi. O'zi borib kelgandek quvonadi. Endi chegarani ochishga bosh qo'shganlarga barcha rahmat aytaypti.

Men ham ulardan biri sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'zbek-qirg'iz do'stligini mustahkamlash yo'lidagi ezgu ishlaridan minnatdorman. Ikki xalqning qardoshlik rishtasi hech qachon uzilmasin. Ahilligimiz, quda-andachiligimizga aslo ko'z tegmasin!

Gulchehra ERMAMAT qizi
Andijon viloyati

Bag'rikeng o'zbek xalqi qirg'izistonlik vatandoshlarimizdan borini ayamagan. Shuning uchun ham men O'zbekistonga kelin bo'lib kelganim, shu yerning fuqarosiga aylanganimdan juda baxtiyorman.

YANGILANAYOTGAN JAMIYAT QIYOFASI

STRATEGIK HUJJATLAR REAL HAYOTDA O'Z NATIJASINI NAMOYON ETAYOTGANIDAN DALOLAT

Ijtimoiy sohada majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko'paydi. Xususan, yolg'iz keksalar va mehnatga layoqatsiz, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlari davlat himoyasida bo'lishi belgilab qo'yildi.



islohotlar ijtimoiy davlat maqomiga erishish yo'liga muhim qadam, ular o'zining ijobiy natijalarini beryapti. Ammo bu borada hali oldimizda yechimini kutayotgan vazifalar ham talaygina. Barcha kutilayotgan natijalarni qo'lga kiritish uchun uzoq muddatli va izchil harakatlar davom ettirilishi lozim.

— Yuksak taraqqiyotni ta'minlashda iqtisodiy islohotlarning ahamiyati katta. Bu borada ko'zlangan marralarga erishishda esa jamiyatimizda tadbirkorlik muhitining rivojlanishi muhim o'rinni tutadi. Bu esa, avvalo, tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi. Mazkur jahdada qanday muhim natijalarga erishilyapti?

— Bu borada rejadan tashqari va muqobil tekshirishlar bekor qilindi, tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish soddalashtirildi. Tadbirkorlikdagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari qisqartirildi. Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solish qulaylashtirildi. Davlat korxonalarini tashkil etishga cheklolvar qo'yildi. Davlat ishtirokidagi korxonalarni keskin qisqartirish choralarini ko'rdi.

Aholining kredit olish uchun arizalari yagona elektron platforma orqali qabul qilinishi belgilandi va 2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloq qilish strategiyasi qabul qilingan. Tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni joriy etildi. Bundan tashqari, har yili Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini o'tkazish yo'liga qo'yildi.

Biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga bo'lim, ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimiga o'tildi. Respublikamizning tuman va shaharlari 5 ta toifaga ajratilib, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Eng muhimi, soliq stavkasini 12 foizga tushirish natijasida qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari soni ortib,

Davlat dasturining har bir bandida belgilangan vazifalar, chora-tadbirlar ijrosi qanday ta'minlanayotgani, uning xalqimiz hayot tarzida berayotgan natijasi faqatgina hujjatlarda emas, real hayotda ham o'z samarasini namoyon etyapti. Bundan bahramand bo'layotgan har bir yurtdoshimizning hayotga qarashi, islohotlarga daxldorligi ortib bormoqda.

"Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalarini o'tkazdi. Bildirilgan tashabbus va fikr-mulohazalar asosida 100 ga yaqin konseptual hamda mingdan ziyod aniqlik kirituvchi va tahririy o'zgarishlar loyihada aks ettirildi.

Islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash yuzasidan markaz tomonidan o'zbek, ingliz



va xitoy tillarida 28 ming 300 nusxada tahliliy nashrlar, to'plam, risola, xatcho'p va boshqa targ'ibot materiallari nashrga tayyorlanib chop etildi. Bundan tashqari, O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirish va mamlakatni

modernizatsiya qilish bilan bog'liq jarayonlarni axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash maqsadida yuzdan ziyod konferensiyalar, davra suhbatlari, ochiq muloqot, taqdimot, uchrashuv va boshqa tadbirlar mahalliy va xalqaro darajada tashkilotlari bilan qator tadbir va uchrashuvlar tashkil etildi. Ularning 30 tasi xorijiy davlatlarda tashkil etildi.

Markaz xodimlari tomonidan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va davlat dasturining barcha ijrochilari, xususan, vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlariga muntazam ravishda maslahat, ko'mak berib borilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, joriy yilning 7 oyi mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida "O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsad va vazifalarini keng jamoatchilikka yetkazish hamda 2024-yilga mo'ljallangan davlat dasturining hududlarda amalga oshirishini muhokama qilish maqsadida mahalliy jamoatchilik, davlat idora va tashkilotlari bilan qator tadbir va uchrashuvlar tashkil qilindi. Bu yo'nalishda vazirlik, idora va tashkilotlarda 47 ta davra suhbatlari va uchrashuv o'tkazildi, 30 dan ortig'i ularning quyi bo'g'inlari ishtirokida tashkil etildi.

— Markazning xalqaro hamkorlar bilan amalga oshirayotgan muhim loyihalari haqida ham o'xtalib o'tsangiz.

— "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan bugungi kunda qator xalqaro hamkorlar bilan amaliy aloqalar yo'liga qo'yilgan, AQSH, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya,

yaqin xorijiy tashkilotlar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Ular bilan doimiy ravishda qo'shma loyihalar, tadbirlar va tadqiqotlar qilinmoqda.

Bundan tashqari, markazning xorijiy hamkorlari qatoriga mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan elchixonalar hamda turli xalqaro tashkilot va jamg'armalar vakolatxonalarini ham kiritish mumkin. Har yili mazkur xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy hamda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yuzdan ortiq tadbirlar, qo'shma loyihalar va tadqiqotlar ham mamlakatimizda, ham xorijda amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ustuvor maqsad va vazifalariga qaratilgan qo'shma loyihalar BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Buyuk Britaniya elchixonasi, Fridrix Ebert fondining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Konrad Adenauer jamg'armasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy vakolatxonasi (Germaniya), Kopengagen konsensus markazi (Daniya) kabi hamkorlar bilan muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Markaz mutaxassislari O'zbekiston Respublikasining rasmiy delegatsiyasi a'zosi sifatida, shuningdek, mustaqil ekspertlar sifatida qator xorijiy davlatlarga tashriflar amalga oshirib, nufuzli xalqaro sammit va forumlarda ma'ruza va chiqishlar qilib kelmoqda. Xorijiy davlatlarga xizmat safarlari davomida yetakchi davlatlar parlamenti va tashqi siyosiy faoliyat idoralari davra suhbatlari, chiqishlar, brifinglar, ma'ruza va taqdimotlar tashkil etilyapti. Shu bilan birga, mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar delegatsiyalari bilan ham markazimizda muhim uchrashuv va tadbirlar muntazam o'tkazib kelinayotir.

Joriy yilda markazimizga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar delegatsiyalari — Germaniya Bundeistagidagi "Germaniya — Markaziy Osiyo" parlament guruhi a'zolari, Malayziya parlamenti Senati raisi o'rinbosari, Xitoy Xalq Respublikasining Sinxua instituti vakillari hamda Germaniyaning Konrad Adenauer nomidagi jamg'armasi va Yaponiya Xalqaro moliya markazi (JCIF) ekspertlari bilan uchrashuvlarda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsad va vazifalari, unda belgilangan ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyati hamda o'zaro hamkorlik masalalari va istiqbollari muhokama qilindi.

Bir so'z bilan aytganda, davlat dasturining har bir bandida belgilangan vazifalar, chora-tadbirlar ijrosi qanday ta'minlanayotgani, uning xalqimiz hayot tarzida berayotgan natijasi faqatgina hujjatlarda emas, real hayotda ham o'z samarasini namoyon etyapti. Bundan bahramand bo'layotgan har bir yurtdoshimizning hayotga qarashi, islohotlarga daxldorligi ortib bormoqda. Bunday o'zgarish va yangilanishlar esa jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, jamiy O'zbekistonda yitish yo'liga muhim yutuqlarga zamin yaratayotir.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

Boshlanishi 1-betda

— Bu yil istiqlolning 33 yilligini munosib nishonlagan O'zbekiston mustaqillik yillarida davlat va jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishning zamonaviy yo'nalishlarini belgilab olib, shu asosda dadil odamlamoqda, — dedi E.Tulyakov. — Ayniqsa, keyingi yillarda yangi O'zbekistonda barpo etish yo'liga ulkan qadamlar qo'yildi. Prezidentimiz mustaqilligimizning 33 yilligi tantanalariga bag'ishlangan marosimdagil nutqida ta'kidlaganidek, har bir ishimiz, har bir yutug'imizda istiqlolning buyuk qudrati yorqin namoyon bo'lmoqda. Vatanimiz dunyoga, dunyo esa yurtimizga keng ochilmoqda. Barcha islohotlarimizning ruhi va mazmuniga "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" degan ezgu g'oya chuqur kirib bormoqda. Tabiiyki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid yillik davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bu borada jamiyatimizda erishilayotgan yutuqlarda muhim o'rinni egallaydi.

Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda. Aholi belgilangan islohotlarning izchil, sifatlari va o'z vaqtida bajarilishi hamda har yili qabul qilinayotgan davlat dasturlarining ijro holatini muntazam kuzatib, o'z munosabat va takliflarini bildirib borishi uchun maxsus ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi — xalq strategiyasi" onlayn portali — uzbekestan2030.uz faoliyat yuritilmogda. Markaz tomonidan davlat dasturlari ijrosi har oy yakuni bo'yicha muntazam monitoring qilinib, natijalari onlayn portalga joylashtirib borilmogda. Ijro etilgan bandler bo'yicha mediamahsulotlar tayyorlanib, OAVda keng yoritib kelinmogda.

— Har bir inson salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish islohotlarining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu borada davlat dasturlarida belgilanayotgan vazifalar ijrosi qanday samara bermogda?

— Inson salohiyatini yuzaga chiqarishda ko'plab omillar qatorida ta'lim tizimining o'ri beqiyos. Shu bois, sifatlari ta'lim tizimini yo'lga qo'yish yangi O'zbekistonda barpo etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Prezidentimiz bu yo'nalishdagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida o'xtalib, "Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham — faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir", deb ta'kidlagani bejiz emas. Shu sababli maktab ta'limini isloh qilish bo'yicha katta dastur qabul qilindi. Maktab o'quvchilari jahondagi ilg'or tajribalar asosida tayyorlangan zamonaviy darsliklar bilan ta'minlanmogda. Yurtimizda dunyodagi nufuzli oliygohlarga filiallari ochilib, O'zbekistonda ta'lim markaziga aylantirish maqsad qilingan.

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi keskin oshdi, maktablar soni ham ko'paydi, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga oshirishga erishildi.

O'qituvchilarning malakasi, ish sharoiti va ijtimoiy maqomini oshirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar ilgari surilib, ijrosi ta'minlandi. Jumladan, o'qituvchilarni uchun professional rivojlanish dasturlari va treninglar tashkil etilib, pedagoglar xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborildi. Shuningdek, xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan o'qituvchilarga qo'shimcha ustamalar belgilash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilganini ta'kidlash o'rinni.

Bundan tashqari, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholiga ta'limning barcha bo'g'inlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ta'lim tizimini yuqori sifat darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu innovatsion iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq. Ta'limga sarmoya kiritish mamlakat kelajagiga sarmoya kiritish, degan g'oyaga tayanadigan bo'lsak, mazkur sohani rivojlantirish nafaqat yuqori malakali kadrlarni shakllantiradi, balki ijodiy fikrlash, tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi.

— "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" maqomini ro'yogga chiqarish bo'yicha erishilayotgan natijalar xususida ham o'xtalib o'tsangiz.

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ushbu maqom belgilanishi natijasida mamlakatimizning



Davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatlil ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar guruhlari ko'rsatadigan xizmatlar va yordamlarning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Joriy yilda tuman (shahar)larda oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarga ko'ra, ijtimoiy xodimlar "hudud — uchastka — mahalla" tamoyili asosida ajratildi.

Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarini tashkil etish maqsadida https://e-learning.istc.uz/ onlayn ta'lim platformasi ishga tushirildi hamda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunga kelib, 1450 nafar ijtimoiy xodim assistenti yolg'iz yashaydigan hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni parvarish qilish bo'yicha o'qitildi.

Joriy yilda yoshlar yetakchilari tavsiyasi



bilan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 46 ming nafar yoshga 89 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 16 ming 524 talabaga ta'limni davom ettirishi uchun 39 milliard so'm kontrakt pullari to'lab berildi. Ishsiz bo'lgan 3211 nafar yoshga 7,5 milliard so'mlik asbob-uskuna va mehnat qurollari ajratilib, mahallaning o'zida bandligi ta'minlandi. Band bo'lmagan 4372 nafar yosh ilm-fan, zamonaviy kasblar va haydovchilikka o'qitilib, 11,2 milliard so'm o'quv kurs xarajatlari qoplandi.

Nogironligi bor va bemor 981 nafar yoshga tibbiy xizmat ko'rsatilib, 4,4 milliard so'm davolanish xarajatlari qoplandi. Uyushmagan yoshlarning 476 nafari safarbarlik chaqiruvi rezerviga jalb qilinib, 3,1 milliard so'm harbiy xizmat badali to'liq to'lab berildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning 20 ming 980 nafarining dehqonchilik, tadbirkorlik, fuqarolik pasportini rasmiylashtirish, musobagalarda ishtirok etish, noturaj joy va loyihalarni amalga oshirish xarajatlari qoplanib, ularga 24,7 milliard so'm yo'naltirildi.

Shuningdek, "Yoshlar daftari" tuman (shahar) jamg'armalarida jami 189 milliard so'm hamda viloyat jamg'armalarida 11,3 milliard so'm mablag' shakllantirildi.

"Raqamli mahalla" yagona platformasi ishlab chiqilib, mahalla.ijro.uz domeniga joylashtirildi. Platforma "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayyollar daftari" platformalari bilan o'zaro integratsiya qilinib, yagona savolnoma moduli ishlab chiqilgan. Umuman olganda, amalga oshirilayotgan

ularning faoliyati "soyadan" chiqdi.

Mikromoliya tashkilotlarini ochish tartibi osonlashti, buning natijasida mamlakatimizda banklarga muqobil kreditlar bozori paydo bo'ldi. Bundan tashqari, bojxona hududida qayta ishlash tizimi soddalashtirildi. Natijada ushbu bojxona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ortdi.

Ko'plab tadbirkorlar murojaatlaridan kelib chiqqan holda qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsiyentini qo'llash amaliyoti, ya'ni "tax-gap" bekor qilindi.

"Qishloq qurilish banki" "Biznesni rivojlantirish banki"ga o'zgartirilib, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etildi. Ushbu markazlar tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashish, o'z hisobidan yangi loyiha qilmogchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitish, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qilish, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing kabi huquqiy va boshqa konsalting xizmatlari ko'rsatadi. Bu orqali biznes va tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay muhit yaratish hamda ularning muammolariga yechim topish va yaqindan ko'maklashish maqsad qilingan.

— Davlat dasturi ijrosi bo'yicha "Taraqqiyot strategiyasi" markazi qanday ishlarni amalga oshiryapti?

— Markazimiz mutaxassislari davlat dasturi loyihasi muhokamasi bosqichidan boshlab bu borada ish olib bormogda. Ekspertlar va keng jamoatchilik muhokamasini tashkil qilish yuzasidan markazimiz "O'zbekiston — 2030" strategiyasini



Dolzarb mavzu

HAM HIMOYA, HAM MUSTAHKAMLOVCHI EKINLAR

OROL DENGIZINING QURIGAN TUBINI O'RMONLASHTIRISH ISHLARI QAY DARAJADA SAMARA BERMOQDA?

G'olibjon QURBONOV,

O'rmon xo'jaligi agentligi direktori o'rinbosari



Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Sohaga oid 30 ga yaqin yangi qonun hamda qariyb 300 ta qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu jarayonda katta ahamiyat kasb etyapti. Qolaversa, O'zbekiston 20 ga yaqin konvensiya, xalqaro protokol hamda kelishuvlarni imzolab, ratifikatsiya qilgan.

Amaldagi qonunlarimizga ilg'or xalqaro huquq normalari to'laqonli implementatsiya qilinmogda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aholi

hayoti va salomatligini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks choralar belgilab olingani e'tiborga molik.

Asosiy qonunimizda fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga oid maxsus normalar, xususan, hamma qulay atrof-muhitda yashash, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborot olish huquqiga ega ekani, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, Orolbo'yi hududining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash yuzasidan choralar ko'rishi nazarda tutildi. Shuningdek, davlat Orolbo'yi hududining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi. O'zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lsa ham shunda. Binobarin, Orolbo'yi hududidagi ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash, hududga barqaror rivojlanishni ta'minlash muhim va dolzarb vazifadir.

Orol dengizining qurigan tubini ko'kalamlashtirish atrof-muhit holatini yumshatish, tabiiy resurslar degradatsiyasiga qarshi sharoit yaratib, qum va chang ko'tarilishining oldini olishga maksimal darajada xizmat qiladi. Shuningdek, fauna olamining boyib, ko'payishi va tarqalishi uchun qulay ekotizim shakllanadi. Cho'l o'rmoni va bioxilma-xillikning kengayishi mintaqada iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga sharoit yaratadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, Orolbo'yi hududidagi o'rmoni 2,3 million gektarga yetkazish, dengizning qurigan tubida qo'shimcha 600 ming gektar yashil maydon barpo etish nazarda tutilgan.

Barcha imkoniyatlar safarbar etildi

Prezidentimizning 2018-yil noyabrda Qoraqalpog'istonga tashrif chog'ida Orol muammosiga yana bir bor global muammo sifatida e'tibor qaratilib, inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun zarur barcha imkoniyatni safarbar etish vazifasi qo'yildi. Bu borada hukumatning maxsus qarori va dasturlari qabul qilinib, belgilangan topshiriqlar hamda loyihalar ijrosiga kirishildi. Natijada 2018-2024-yillarda Orol dengizining qurigan hududidagi 1 million 865 ming gektar yerda cho'l o'simliklari urug'ini va ko'chatidan "yashil qoplama" barpo etildi. Bu jarayonga yurtdoshlarimiz ham baholi qudrat hissa qo'shdi. Jumladan, o'rmon xo'jaliklari ishchi-xodimlari va aholi 6,9 ming tonna saksovl va boshqa cho'l o'simliklarining urug'ini jam'ardi. Shundan 1,3 ming tonnadan ortig'i Mo'ynoq tuman aholisi ulushiga to'g'ri keladi.

Ko'kalamlashtirish ishlarini davom ettirish uchun yiliga 100 gektardan kam bo'lmagan maydonda saksovl ko'chatzorlari tashkil qilindi. Shuningdek, 1,3 ming gektar yerda tayyorlash (qum to'playdigan borazda ochish) ishlari bajarildi. Shuningdek, jarayonga har yili o'rta 500-1000 tagacha texnika, 4 tadan samolyot va 2 tadan deltaplan jalb etildi. Har yilgi ekish mavsumida o'rta 1000-2000 ishchi ishtirok etdi. Viloyatlar hokimliklari hasharchilarni yuqori samarali traktor va boshqa texnikalar, ishchi kuchi, oziq-ovqat xazirasi hamda qalin kiyim-kechak bilan ta'minlashda yaqindan amaliy yordam ko'rsatdi.



Samolyotda ekilgan urug'lardan ko'kargan 3 yillik saksovullar

Orolning qurigan tubini ko'kalamlashtirishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanilmogda. Jumladan, soha olimlari texnik va yaylov bop ekinlarning intensiv ko'paydigan yangi navlarini yaratish hamda agrotexnologiyasini ishlab chiqish, o'rmon urug'chiligi rivojlantirish va genofondini boyitish, cho'l o'simliklari ko'karuvchanligini tezlashtirish maqsadida gidrogeldan foydalanish bo'yicha amaliy hamda innovatsion loyihalarni amalga oshiryapti. Barpo etilgan "yashil qoplama"lar tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mutazam monitoring qilinib, ko'karuvchanlik bo'yicha yaxshi natijalar kuzatilyapti.

Hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar keyingi mavsumlarda ham davom ettiriladi. Saksovl, cherkez kabi o'simliklarni ko'paytirish orqali ko'chma qumning mustahkamlanishiga erishilmogda. Shuningdek, bu usul yerning ustki qatlamida shamol tezligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 3 yillik saksovluzorda qum ko'chishi 55 foiz, 5 yillik "yashil qoplama"da esa 79,5 foiz kamayadi. Saksovl butasi 7 yillik bo'lganda bir tupi 10 tonnagacha qumni mustahkam tutib turadi va ko'chkiga yo'l bermaydi. Ildiz tuproqqa chuqur kirib borib, gorizontal yo'nalishda sakiz metr gacha yetadi. Bu esa qum sathini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, cherkeznig ham ildiz tuproqqa chuqur kirib boradi.

Havo tarkibini yaxshilab, atrof-muhitning ifloslanishiga chek qo'yishda ham bu o'simliklarning xizmati katta. Tadqiqotlarga ko'ra, 1 gektar yerdagi saksovl va cherkez yil davomida 1135 kilo karbonat angidrid gazi yutib, 835 kilo kislorod chiqaradi.

Orol dengizi qurigan tubida ekilgan shu kabi butalardan iborat "yashil qoplama" yaqin 4-5 yilda quyuuq o'rmonga aylanib, qum, chang va tuzning atmosferaga ko'tarilishini to'xtatadi. Yurtimizda cho'l ekotizimining barqarorligiga erishish, biologik xilma-xillikni kengaytirish, yerdan samarali foydalanish borasidagi izchil ishlar ekologik muammolar yechimiga xizmat qilmoqda. Shu bois, bu jarayonda yangicha yondashuvlar, innovatsion

g'oyalarga asoslangan loyihalarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratilyapti. Jumladan, barxan va tekis qumliqlarda kichik aviatsiya yordamida saksovl qanotsizlantirib, urug'lari donador va sochiluvchan holatga keltirilib ekilayotir.

Deltaplanlar yordamida sepilganda qatorlari kengligi 20-30 metr, ular orasidagi masofa 50-70 metrgacha bo'lgan. Urug'larning qanotsizlantirish atrofiga uchib ketishining oldini oladi. Ushbu usulning afzalligi an'anaviy o'rmon barpo etishga nisbatan ish unumdorligi yuqoriligidir. Traktorlar yordamida bir kunda 40-50 gektargacha hududda o'rmon barpo etiladigan bo'lsa, kichik aviatsiya ko'magida kamida 1000-1500 gektargacha ish bajariladi.

"Yashil qoplama" hosil qilishning yana bir usuli bor. Bu Orol dengizining qurigan tubida 40 santimetr chuqurlikda qum to'playdigan jo'yaklar olib, maxsus qurilma yordamida tubini yanada chuqurlashtirgan holda yerni ekinga tayyorlashdir. Bu yumushlar kuzda bajarilsa,



Samolyotda ekilgan urug'lardan ko'kargan saksovluzor

jo'yaklar 2-3 oyda qumga to'ladi. Keyin unga 1 yillik saksovl va boshqa cho'l o'simliklari niholini ekish mumkin.

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari o'tkazgan tajriba-sinovga ko'ra, maxsus moslamalar bilan tayyorlangan jo'yaklar samaradorligi shundaki, qumga to'lganda keyin unga ekilgan nihollarning 85 foizi ikkinchi yilda ham saqlanadi. Ariq ochmasdan, tekis maydonda ekilgan ko'chatlarning unib chiqishi esa 12 foizga teng bo'ladi. Bunga sabab qum to'playdigan arirlarda namlikning tekis yerga nisbatan ko'p saqlanishidir. Bu holat, ayniqsa, cho'l hududlarida juda muhim. Ushbu usulda yerni ekishga tayyorlanib, bosqichma-bosqich ko'chat qadalmogda.

Olimlarning qayd etishicha, Orol dengizi qurigan maydonidagi yerning holati bir xil emas. Besh yil avval qurigan hudud bilan 50 yil avval suv qochgan joy holatida katta tafovut mavjud. Hamma yerga bir turdagi o'simliklarni ekishni tavsiya qilib bo'lmaydi. Har bir hudud o'ziga xos yondashuv talab etadi. Yerning holati, qum va sho'r miqdorini e'tiborga olib, faqat to'g'ri tanlab ekilgan ko'chatlarga unib, o'sib ketishi mumkin.

Ilmiy izlanishlarda shu kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilyapti. Masalan, O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan "Qurigan Orol dengizi tubidagi qisman o'simliklar bilan qoplangan hududlarda cho'l butazor yaylovlari barpo etish tizimini ishlab chiqish" loyihasi doirasida 3000 gektar maydonda ozuqabop teresken, keyreuk kabi cho'l o'simliklaridan yaylov barpo etildi. Bu yerda unib chiqqan nihollarning ko'karuvchanligi tuproqning sho'rlanish darajasiga qarab 20-60 foizni tashkil etdi. Kelgusida saksovluzor oralarida ana shu texnologiyalar asosida mahsuldor yaylovlar barpo etish mumkin.

Orol dengizi qurigan hududida qazilgan artezian quduqlaridan suv chiqarilishi natijasida joylarda sun'iy ko'llar paydo bo'ldi. Ular atrofida qumshorlar vujudga keldi. Daraxt va butalar o'sa boshladi. Qumliqlarda barpo

etilgan saksovl va boshqa cho'l o'simliklaridan iborat maydonlar ular bilan uyg'unlashib, cho'l ekotizimi tiklanayapti. Yovvoyi hayvonlar va qushlarni o'ziga jalb etib, shu yerda yashash, in qurish va ko'payishga sharoit yuzaga kelyapti. Monitoring davrida ko'plab hayvonlar, ayniqsa, uzoq o'lkalarga uchib ketadigan qushlar migratsiyasi, jumladan, qizil oyoqli flamingolarning bir muddat qo'nishi holati kuzatildi.

Monitoring natijalariga ko'ra, Orol dengizining Axantay hududida yangi shakllangan o'simlik qoplamasi hayvonot olamining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.

Axantay massivida tarqalgan o'simlik, umurtqasiz hayvon va hasharot turlarining zamonaviy ro'yxati shakllantirildi. Hudud chegaralari ilmiy asoslanib, maydoni aniq belgilandi. Massivning umurtqasiz hayvonlari to'g'risida raqamli geoxorbot ma'lumotlar bazasi ishlab chiqildi. GPS navigatori yordamida hasharotlar o'rganilgan koordinatalar aniqlanib, ularni turli masshtabdagi yoki hududiy elektron xaritalarga kiritish imkoniyati yaratildi. Axantay massivida hasharotlar faunasi, biologiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ulardan zamonaviy usullar asosida foydalanish uchun bioobyekt xaqidagi ma'lumotlar to'plandi.

Axantaydagi "yashil qoplama"da tarqalgan hayvonot dunyosini monitoring qilish natijalariga ko'ra, 10 turkum, 21 oila, 35 avlodga mansub 51 hayvon turi aniqlandi. Ushbu hudud hayvonot olami bioxilma-xilligi populyatsiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgani tasdiqlandi. Bu hududda aniqlangan 51 turning 30 tasi keng tarqalgan, 21 turi kamyoq, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

Rezolyutsiya — muhim qadam

2024-yil 13-avgustda BMT Bosh Assambleyasi bir ovozdan "Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni tarqatish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi" rezolyutsiyasini qabul qildi. Mazkur rezolyutsiya Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan, shahar va qishloq hududlarini ko'kalamzorlashtirish orqali bioxilma-xillikni saqlash hamda tiklashga qaratilgan "Yashil makon" milliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Hujjatda davlatimiz rahbarining Bosh Assambleyaning 78-sessiyasi va BMTning Iqlim bo'yicha 28-konferensiyasida qabul o'zgarishiga va yerlarning degradatsiyasiga qarshi samarali kurashish bo'yicha bildirgan asosiy takliflari o'z ifodasini topgan. O'rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o'tqazishning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik afzalliklari har tomonlama ko'rsatilgan. Ularning ekologik xilma-xillikni oshirish, iqlim o'zgarishi va havo ifloslanishi oqibatlarini yumshatish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, shu jumladan, kambag'allikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi hisssasi alohida ta'kidlanadi.

Rezolyutsiyaning o'ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi so'nggi ilmiy yo'nalishlarga muvofiqligidir. Ekologik toza va ekotizimga asoslangan usullardan foydalangan holda biologik xilma-xillikni saqlash va ko'paytirish maqsadida BMTga a'zo mamlakatlarga daraxt ekish sohasida aniq tavsiyalar beriladi.

Qishloq xo'jaligi

FIKR, TASAVVUR O'ZGARISHIDA GAP KO'P

"Yangi O'zbekistonda — yangi imkoniyatlar". To'g'risi, bir eshitgan quloqqa bu gap bir oz balandparvozdek tuyuladi. Masalan, yosh navqiron avlodning jahonning turli manzillarida ilm-fan deysizmi, san'at yoki sportmi, qaysi yo'nalishda bo'lmasin, yuqori marralarga erishayotganining asosi aynan shu va yuqoridagi gapga hamohang, desak ko'pchilik fikrimizga qo'shilishi mumkin. Biroq ayrim yo'nalishlar, masalan, chorvachilikdek tarmoqlar borki, unga e'tibor, imkoniyatning ahamiyati yo'q, bitta cho'pon, keng dasht va uning tayog'i bo'lsa bas-da, deguvchilar ham topiladi.



Ammo bugungi shiddatkor, jadal zamonda resurslar kamayib borishi hisobiga bu tarmoq rivoji nafaqat savol ostida, balki yo'qolib ketishi ehtimoli ham mavjud. Bunday bo'lmasligi uchun esa aniq chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyatida 2024-yilning o'tgan vaqti davomida chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar bajarildi. Birgina chorvachilik va uning tarmoqlarini yanada

rivojlantirish maqsadida joriy yilda umumiy qiymati 283,2 milliard so'mlik 84 ta loyiha amalga oshirildi.

Chorvachilik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida chorvachilikning ulushi 13 foizni tashkil etadi. Qishloq joylardagi uy xo'jaliklari daromadining sezilarli qismi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan barcha aholi daromadining ham bir qismi aynan chorvachilik hissasiga to'g'ri keladi, — deydi viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bo'lim boshlig'i Chori Naymanov. — Bu tarmoqda naschilik yaxshi tashkil etilgan rivojlanishi belgilaydi. Shu sabab bu bo'yicha alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqanmiz.

Joriy yilning o'zida vohada baliqchilik yo'nalishida qiymati 44,1 milliard so'mlik 20 ta loyiha ishga tushirilishi hisobiga 926 tonna baliq yetishtirilishi rejalashtirilgan. Yilning shu davriga qadar 6 milliard 400 million so'mlik 12 ta loyiha hisobiga 46 ta ish o'rni yaratildi. — Baliqchilik tarmog'ida an'anaviy eski usullardan voz kechilib, yangi innovatsion usullar tatbiq etilishi yuqori samaradorlikni belgilayapti, — deydi tadbirkor Nurmuhammad Norhamidov. — Sloveniya metodi asosida 18 ta

hovuz qurilib, samarali baliq yetishtirish yo'lga qo'yildi. Termiz tumanida ham Malayziya texnologiyasi asosida innovatsion usulda baliq yetishtirish loyihasi tatbiq etilyapti. Bugungi kunda loyihaning birinchi bosqichida 20 ta aylanali sun'iy hovuzcha qurish ishlari jadal davom etmoqda.

Aholining tuxum va parhez go'shtga ehtiyojini qondirish maqsadida vohada parrandachilik tarmog'i ham rivojlanib bormogda. Parrandachilik daromadli, shu bilan birga, anchayin nozik soha bo'lib, keyingi yillarda yurtimiz agrar sektoridagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Masalan, Oltinsoy tumanining Bibizaynab mahallasida loyiha qiymati 15 milliard so'm bo'lgan yangi parrandachilik korxonasi ish boshladi.

Korxonaga 30 ming bosh tovuqqa mo'ljallangan. Xitoyning 630 ming dollar qiymatidagi zamonaviy texnologiyasi bilan jihozlandi, — deydi "Bibizaynab" MFY xotinqizlar faoli Baxtiniso Elmurodova. — Hududda ish boshlab, aholi bandligiga hissa qo'shayotgan "Seven-planer" mas'uliyati cheklangan jamiyatining parrandachilik kompleksi to'liq quvvatda ishga tushirilsa, soliq tushumi 120 million so'mni tashkil qiladi. Kompleksda bir kunda 11 ming dona tuxum olish imkoniyati yaratiladi. Demak, 1 oyda 264 million so'm, bir

yilda esa 3 milliard so'mlik mahsulot yetishtirish mumkin bo'ladi.

Jarqo'rg'on tumani chorvachilik yo'nalishida vohada peshqadamlardan sanaladi. Keyingi yillarda tumanida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari yanada rivojlanmogda. Xususan, tumanning "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan "Termiz Jayhun" klasteriga qarashli chorvachilik kompleksi ana shunday yirik qishloq xo'jaligi loyihalardan biri.

Bugungi kunda mazkur chorvachilik kompleksida 150 bosh sigir va buzoq boqilyapti. Kelajakda qoramol bosh sonini 500 taga yetkazish rejalangan. Sut ishlab chiqarish hajmi ham 15 ming litrga oshiriladi. Sutning bir litri 5 ming so'mdan sotilishini hisobga olsak, daromad salmog'ini chamalash qiyin emas, — deydi viloyat hokimligining tumanidagi investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo'yicha vakili Ro'ziyov Normamatov. — Bu kabi tashabbuskor loyihalar yurtdoshlarimizning o'zidan chiqayotgani tahsinga sazovor. Odamlarning fikri, dunyoqarashi o'zgarayotganida gap ko'p.

Surxon vohasida joriy yilda g'alladan bo'shagan 18 ming 443 gektar yerda chorva uchun takroriy ozuqabop ekin ekilgan. 2024-2025-yillarda chorva qishlovini betalafot o'tkazish maqsadida barcha toifa xo'jaliklari tomonidan yo'l xaritalari ishlab chiqilgan. Viloyatda chorvachilikni rivojlantirish hisobiga shu yil yakuniga qadar qoramol bosh soni 1,1 million, qo'y-eчки 2,7 million, ot 19 ming, parranda 5,3 millionga yetishi maqsad qilingan. Buning evaziga 225 ming tonna go'sht va 1 million 80 ming tonna sut hamda 595 million dona tuxum yetishtiriladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bolalarga AVTOTURARGOH EMAS, O'YNASH UCHUN BEXAVOTIR JOY ZARUR

Texnik xavfsizlik qoidalari nimalardan iborat?

Shu o'rinda savol tug'iladi: farzandlarimiz maroqli dam olishi uchun bolalar maydonchasi qanday qulayliklarga ega bo'lishi zarur? Texnik xavfsizlik qoidalari nimalardan iborat?

— Bolalar maydonchalari uylardan uzqoq bo'lmagan masofada, ochiqroq joyda, yorug'lik bir tekis tushib turishi, bolalarning erkin harakatlanishi inobatga olingan holda ularni qiziqtiradigan o'yin jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi zarur, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi axborot xizmati mutaxassisi Zuhra Ergasheva. — Ya'ni bolalar maydonchalarining qulay, ko'rkam va tekis joylarda tashkil etilishi, atrofida sersoya daraxtlar va dam olinadigan o'rindiqlar bo'lishi joiz, jihozlarning bolalar yoshi hamda qiziqishlariga mos zamonaviy, sodda tuzilishga ega, sanitariya va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan turini o'rnatish lozim. Bolalar maydonchalaridagi jihozlarning materiallari va ularga ishlov berinishning ham o'ziga xos talablari bor. Bu talablar tegishli me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Avvalo, yog'ochdan ishlangan jihozlarga qattiq daraxt turlaridan tayyorlangan va chirish, yonish hamda sinishlarning oldini oluvchi maxsus ishlov berilganiga ahamiyat qaratish kerak. Sirlit tekis va uchli qirrali yumaloqlangan bo'lishi shart. Jihozlarning ko'tarib turuvchi qismlarida metallardan foydalanilgan, ular ishonchli birikmalarga ega bo'lishi va tegishli ishlov berilishi, (korroziyaga qarshi qoplamaga ega) plastik va polimerlardan tayyorlangan

Masalan, poytaxtimizning Yangiyahoy tumani 8-qurilish hududidagi mahallalar orasida qurilgan futbol maydonchasini ko'rsangiz, u yerda futbol emas, gladatorlar jangi bo'lib o'tsa kerak, degan xayolga borasiz. Koptok chiqib ketmasligi uchun o'ralgan simto'rlar yitilib, ko'z yoki qo'lga kirishi mumkin bo'lgan uchlari maydon ichiga burilib ketgan. Oyoq osti esa mayda qora toshlar bolalar keltirgan shisha siniqlari, shirinlik qog'ozlari bilan to'la. Bunday sharoitda rostdan ham to'p chiqib ketmaydi — istalgan joyga tepsangiz, borib to'ppa-to'g'ri sanchiladi. Darvoza ustunlari esa qiyshayib ketgan. Yoninasidagi maydonchada bolalarning mazmunli vaqt o'tkazishi uchun aytarli shart-sharoit yo'q. Sanoqli uskunalar ham ta'mirlanib, ba'zilar esa hali qurib tugatilmagan. Arg'imchoq o'ringidagi yo'qligi, boshqasining esa temiri sinib, bukilib qolgan bolalar uchun xavfli. Bundan tashqari, turli g'isht, beton sochilib yotishi ularning erkin harakatlanishiga xalaqit beradi. Oftob taftida maydoncha taniq qizib yotibdi.

Shu atrofda ishtiqot qiluvchi yosh onalardan birining fikrini bilmoqchi edik, bu haqda gapirishni istamadim. Ko'p qavatli uyning yo'lagida turgan Azamat ismli yurdoshimiz esa "Maydonchani ahvolini ko'rib turib, izohga hojat yo'q" dedi-yu, bizga tinchlik kerak, degandek o'zini chetga oldi.

Bunday o'yingohlarga, tabiiyki, sog'lom fikrlorchi hech bir ota-onaga farzandini yolg'iz tashlab ketmaydi. To'g'ri-da, bolani omonat payvandlangan, zanglagan temir atraksionlarga erkin qo'yib yuborish uning mustaqil emas, ko'proq majruh bo'lishiga zamin yaratib beradi, xolos. Taassufki, bunday joylarda bolaning qo'li

punktlarini obodonlashtirish va saqlab turishga doir takliflarga "ko'rib chiqiladi, inobatga olinadi"dan nariga o'tmaydi.

Oddiy hamfikrlilik, o'zini boshqan o'rninga qo'yib ko'rish, umumi masalalar uchun ijtimoiy munosabatlar o'rnatish imkonsiz bo'lib turgan paytda aholidan bu borada maqsadli harakat kutish — umidsiz yechim. Maydonchani jamoatchilik ishtirokida qaytadan ta'mirlash tashabbusi bilan chiqsangiz, kichik yoshdagi farzandlari bo'lgan ota-onalar sizga oq yo'l tilashi mumkin, lekin bolalari ulg'aygan fuqarolarning e'tiboriz hamda hafsalsiz yuzi bir qadam bo'lsa-da, oldinga siljishingizga imkon bermaydi. Ba'zi keksalar esa maydoncha bo'lmasa yaxshiroq, degan qarorda to'xtaydi. Derazasi oldida bolalarning ertalabdan kechgacha tinmaydigan qiy-chuvi quloqqa yoqmasligini zarfa bilan aytadi.

Qad ko'tarayotgan sitlarda, albatta, bu muammo yo'q. Chunki u yerdagi uylar narxiga sifatli maydonchadan foydalanish ham qo'shib yuborilgan. Ammo aholining katta qismi sitlardan uy olishga qodir emas. Qolgan hududlarda yashovchi bolalar xavfsizligiga kim javobgar? Umuman, bizda bolalar maydonchalari xavfsizligiga javob beradigan tashkilot bormi?

"Bu yerda faqat shag'al va toshlar bor..."

Muammoning tub ildizi bolalar maydonchalari qurilishi va saqlab turilishi uchun kim mas'ul bo'lishi masalasi tartibga solinmaganiga, ta'sirchan tizim yo'qligiga borib taqaladi.

Aksariyat hollarda javobgarlik xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga yuklanadi. Shirkat umumiy mol-mulk, XUMSHning yer uchastkasi, mol-mulki asaralishi va saqlanishini ta'minlashi shart. Agar XUMSH a'zolari o'z yer uchastkalarida bolalar maydonchasini bunyod etish to'g'risida qaror qabul qilsa, hamma birdek qo'llab-quvvatlaydi. Bunda, albatta, aholi uni qurish va saqlab turish xarajatlari majburiy badal tarkibiga kirishini bilishi lozim. Biroq shirkatda unga davlat yer kadastrini biriktirib qo'ygan yer uchastkasi bo'lmasa va uning chegarasi binoning burchagi yoki perimetr bo'yicha bir-ikki metr naridan o'tsa, u holda uy yonidagi uchastka umumiy foydalanishdagi yerlarga kiradi. Yer kodeksiga binoan, u yerda davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'ladi. Ularning vakolatlari doirasiga yer uchastkasida turli inshootlar barpo etish ham kiradi.

Demak, barchasi bolalar maydonchasi kimning hududida joylashgani yoki uni qayerda qurish mo'ljallanganiga bog'liq. U shirkatning kadastr bilan belgilangan yer uchastkasida bo'lsa, maydoncha ega XUMSH hisoblanadi. Shirkat uni o'tmatadi, ta'mirlaydi, saqlab turadi. Agar maydoncha davlat yerida bo'lsa, uning uchun shahar, tuman javob beradi va barcha masalalar bilan hokimlikka murojaat qilindi.

Bu oraliqda farzandning qayerda bepul hordiq chiqarishini bilmay sarson yurgan aholi XUMSHga muammo borasida aytsa, pul yo'q, degan javob oladi. Mahalla raisi biror homiy tadbirkor topish kerakligini ro'kach qiladi. Yetmaganiga, yosh bolani yo'qlar qarshi chiqadi. Shunday qilib, "O'tang bor, onang bor" qabilidagi holat yillar davomida yechimini topmay yotaveradi, bolalar jorohati jiddiy tus olishda davom etaveradi.

— Yam-yashil chim yotqizilishi kerak edi. Bu yerda faqat shag'al va toshlar bor, — deydi Yashnobod tumanidagi Izzat ko'chasida yashovchi Sojida opa. — Toshlar sinig'i oyog'iga botib, necha yosh bola tizzasini shikastlab olayotganini u ko'zim bilan ko'ryapman. Maysani-ku, umuman, orzu qilmay qo'ydik, hech bo'lmasa, sport uskunalarini va arg'imchoqlarni xavfsiz qilib o'rnatishga, yaxshi bo'lardi. O'zimizdayam gap ko'p. Nihoyatda beparvomiz. Mana, yaqinda qo'shim maktabda o'qiydigan qizchasing ko'rsatib barmog'ini amputatsiya qildirdi. Bola bechoraga achindim. O'zimning farzandimni esa deyarli ko'chaga chiqarmayapman. Ammo kun issiq, uy dim, bola zerikadi, siqiladi-da...

Bo'lib o'tgan voqeani hamshira bo'lib ishlaydigan dugonasiga so'zlab berganda, dugonasi bu arg'imchoqlar bilan bog'liq birinchi holat emasligini aytgan.

— Dugonamning aytishicha, barmog'ini jiddiy kesib olgan, boshi lat yegan yoki tizzasini shilgan bolalarni yosh onalar ko'p olib kelar, aksariyat arg'imchoq uzilishidan yuqilgan, sirpanchiq plastmassasi sifatsizligidan toyib ketgan yoki temir qisib qolgan bo'larkan. Bizdagi arg'imchoqning bir tarafi singanda, mahalladagi faollar pul yig'ib, payvand qildirdi. Temirlari zanglab yotibdi, menimcha, avvaldan eski materialdan ishlangan, shunchaki ustini bo'yab qo'yishgan, xolos. Qaysi vijdon bilan bunday qilishar ekan-a? Hamma joyda shunday demochimasman. Misol uchun, Sergelidagi yangi xonadonlarda yashaydigan akamning uyi oldidagi bolalar maydonchasi juda zo'r. Bolalarimni ham, o'zimni ham xavfsiz his qilaman, lekin o'g'lim har gal o'ynagusi kelganda, akamnikiga boravermayman-ku, — deya fikrini yuqulaydi Sojida opa.

Tan olish kerak, yaqin yillar mobaynida bolalar maydonchalari tiklash va tashkil etish dasturlari tuzib chiqiladi. Bolalar maydonchalariga doir, shu jumladan, ular xavfsizligi va sanitariya

O'yin orqali bolalar atrof-muhit bilan yaqindan tanishadi, o'zaro muloqotini o'rganadi, mustaqil harakatlanishi, o'z kuchini sinab ko'rishi mumkin bo'ladi. Bolalar o'zlarini uchun instinktiv ravishda o'yin jihozlari, o'yin maydoni hamda o'yin turini tanlaydi. Bolalar maydonchasida o'tkaziladigan harakati o'yinlar orqali bolalar atrof-muhit bilan uyg'unlashadi va oxir-oqibat ularni tabiatga mehr uyg'unadi.

Maydonchalar bolalarning vaqtini mazmunli o'tkazishiga, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. U yerdagi barcha jihoz bolalar uchun qiziqarli bo'lishiga erishish nihoyatda muhim. Chunki maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning kundalik hayotida o'yin er qiziqarli faoliyat turi va uning vositasida bolalar jismoniy hamda intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir imkoniyati yuqori. O'yin orqali bolalar atrof-muhit bilan yaqindan tanishadi, o'zaro muloqotini o'rganadi, mustaqil harakatlanishi, o'z kuchini sinab ko'rishi mumkin.

Maydonchalarda o'ynaladigan o'yinlar faqat u yerdagi sport jihozlari bilan bog'liq bo'libgina qolmay, sodda milliy o'yinlarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq. Bu esa bolalarni o'yin vositasida qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu o'yinlar orqali bolalarning harakatida mustaqillik, dadillik, jur'at paydo bo'ladi. Ular bu maydonchalarda erkin harakat qilish, boshqa bolalarning harakatidan o'rnatilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biz urbanizatsiya hamda odamlarning ruhan tarqoqligi shiddat bilan o'sayotgan zamonda yashayapmiz. Shu bois, bolalar maydonchasi ayni paytda eng muhim masala bo'lib turibdi. Chunki maydonchalar nafaqat bolalarni, balki ota-onalarini ham jipslashtiradi, umumiy muloqot maydoni paydo qiladi.

Aholi ko'pincha bolalarning vaqtini chog' o'tkazish g'oyasi atrofida birlashadi. Kishilarni katta hamjamiyatlarga qaraganda kam qavatli uylarda birlashtirish ham ancha oson. Quruvchi yaxshi qo'shchilik munosabatlarni faol qo'llab-quvvatlaydi, bu holat xarid to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Demak, bolalarning birgina o'yingohi ortidan shirkatlar ishi yurishadi, sifat ko'rsatkichi oshadi, aholi bir maqsad yo'lida birlashishni o'rganadi. Bizning oldimizda nafaqat bunday qo'shnilar markazini tashkil etish, balki bu ular uchun qanchalik kerakli ekanini tushuntirish vazifasi ham turadi.

Misqoligina hafsala kifoya

holatiga qo'yiladigan ba'zi talablar belgilandi. Barcha bolalar maydonchalari, ulardagi mavjud inshootlarni yalpi inventarizatsiyalash, ularni uy-joy mulkdorlari shirkatlarini va fuqarolarning o'zini o'z boshqarish organlariga berish mo'ljallandi. Har bir mahalla, mavze, daha uchun maydonchalar bunyod etish va tiklash, pasportlashtirish, belgilangan talablarga muvofiq sertifikatlashtirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish belgilandi. Hokimliklarga ularni tiklash ishlariga tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, fermer xo'jaliklari, xonaxorlar va hokazo tashkilotlar, shuningdek, aholini jeng jalb etish topshirildi.

Bolalar maydonchalari saqlash uchun javobgarlik XUMSH va fuqarolarning o'zini o'z boshqarish organlari rahbarlari zimmasiga yuklandi, umuman olganda, dasturlar vaziyatni yaxshiladi, biroq bu bilan barcha muammoga barham berildi, deya olmaymiz.

Bolalar maydonchasi nega kerak?

Taniqli pedagog A.Makarenko aytganidek, o'yin bola uchun bilish manbaidir. O'yin jarayonida bolalar egallashi qiyin bo'lgan ko'nikmalarni osongina o'zlashtiradi, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladi. Ular tevarak-atrofdagi ko'rgan narsalarini o'yinda ifodalash orqali turli harakatlarni bajaradi, ya'ni yuradi, yuguradi, sakraydi, o'rmaydi, biror buyumni irg'itadi. Natijada ularning qaddi-qomati, muskuluri va sezgi organlari rivojlanadi, organizmining hayot faoliyati yanada yaxshilanadi. O'yinda bolaning iradosi, o'z harakatlarini o'yin qoidasiga bo'yusundira olish ko'nikmasi o'sadi, u o'zini qo'pol xatti-harakatlar qilishdan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga o'rganadi, oqibatda unda jismoniy sifatlar shakllanadi.

Azbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bolalik o'yin bilan zavqli. Eslasak, qalbmizni entiktiradigan mashg'ulotlarimiz ko'p bo'lgan. Har bir mavsumning o'ziga xos va mos o'yinlari vaqtimizni mazmunli qilar, odamlarning fe'li kabi o'yin maydonlari ham keng edi.

Bugun zamon o'zgardi. Aksariyat bola gadjetlar bilan vaqt o'tkazaypti. Ularni ham to'g'ri tushunish kerak: ko'chada mashina ko'p, ko'p qavatli uylar hovlisi tobora "toraymoqda". Bolalar maydonchalariga esa ishonch yo'q: ta'mirlab atraksionlar...

O'yinlarning bolani jamiyatga qo'shishdagi o'rini hech nima bilan to'ldirib bo'lmaydi. Ular bolaga jismoniy, intellektual-hissiy, kommunikativ — har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola sardor, ishtirokchi, tomoshabin bo'lish oraliqida dunyo xususidagi bilimlarni mustaqil tarzda kengaytirib boradi. Eng qizig'i, bu bilimlar majburan o'rgatilmaydi, uning o'zi zavq balandligida yangi tushunchalarni o'yin shartlarining bir qismi sifatida oson qabul qilib ketaveradi. Bizning xalq pedagogikamiz mohiyati ham shundan iborat.

Jarayonda diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar singari xususiyatlarini yana ham aniqlashtirish uchun bolalar maydonchalari quriladi. Bolalar maydonchasidagi sodda o'yin qurilmalaridan foydalanish orqali esa bolaning psixologiyasi, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlarini takomillashadi. Bundan tashqari, o'yingoh bolaning xulq-atvoriga yaxshigina ta'sir ko'rsatadi. Maydoncha faoliyati bevosita tabiat bilan bog'liq, mittivoylar esa endi tabiatga oshno bo'ladi.

Maydonchalarning bola xarakteri shakllanishidagi o'rini muhimligiga qaramay, bizda haligacha ularning abgor holatda qolib ketganlari yoki boshidanoq shunday qurilganlari topiladi.

Nega bolalar maydonchalarining aksariyati bizda hech qanday qonun-qoidasiz, me'yorlar-u standartlarga amal qilmadan barpo etiladi? Maydonchalarni har bir ko'p qavatli uy aholisi, mahalla yoki uy-joy mulkdorlari shirkati o'z istagi va xohishidan kelib chiqib qurib oladi. Aftorini yashil daraxtlar o'rniqiga sigaret qismlariga ko'rs amiklar kabi tutun purkagan mashinalar to'ldirgach esa o'yingoh bolalar maydonchasidan ko'ra avtomobillar ko'p yiladigan turargohga o'xshab qoladi. Natijada "Bolam toza havoda aylanib kelaypti", deb ko'nglini xotirjam qilgan ona kechga o'g'lini kiprigiga qadar chang qo'ngan holatda kutib oladi.

Bolalarga quvonch olib keladigan sirpanchiq, arg'imchoq va boshqa qurilmalar mukammal loyiha asosida emas, mahallalarda ko'p bora ko'zim tushadigan oddiy temirdan qo'lbo'la usulda tayyorlanadi. Ularni har qanday chilangar eski quvurdan yoki birorta usta amaki ustaxonasida tayyorlab o'rnatib ketaveradi. Bunda, shubhasiz, standartlarga rioya etish to'g'risida o'ylanmaydi. Bolalar maydonchalari qurilishi borasida yakdill fikrga ega bo'lmagan shirkatlar sertifikatlangan to'plamlarni qimmatligi bois, sotib ololmaydi.



jihozlar silliq, yorqin va toza rang, iqlimiy omillar ta'sirida rangini yo'qotmaydigan yuzaga ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, jihozlar bolalarning boshi, bo'yini va tananing boshqa qismlari hamda kiyimlari tiqilib qolishining imkon qadar oldini olgan holda o'rnatilishi, o'tkir qirrali chiqib turuvchi qismlar bo'lmasligi va bolalar kira oladigan joylardagi barcha burchaklar yumaloqlashtirilgan bo'lishi, bolalarning jihozlardan yiqilib tushishi oldini olish uchun qo'l bilan ushlab yurish moslamasi va to'siqlar, shu bilan birga, yuqilganda jarohatlanishning oldini olish uchun zarbani yumshatuvchi qoplamalar ko'zda tutilishi lozim.

Xo'sh, yurimimizdagi barcha o'yingohlar yuqoridagi talablarga javob beradimi? Afsuski, yo'q. Respublikamizda jami 8300 dan ortiq bolalar maydonchasi bo'lib, shundan 7050 tasi yangi qurilgan va soz holatda. 1303 tasi ta'mirlanib, Aksariyat o'yingohlar sifatli bo'lishi mumkin, ammo 1303 ta ham hazilakam son emas. Albatta, joriy hamda keyingi yillar oraliqida bu raqamlarni kamaytirishni maqsad qilganmiz.

Haqiqatan, bolalarning yuqoriga chiqishi va sirpanib tushishida, uzunligi 2 metr, balandligi 2,5 metrdan baland bo'lmagan, qo'l bilan ushlab chiqish uchun moslangan sirpanchiqlar bilan jihozlanishi kerakligini, bolalar maydonchalari gimnastika devori hamda gimnastika ustunchalari bilan to'ldirilishi zarurligi kabi bir qarashda mayda, ammo muhim tabiqlarni kezi kelganda na aholi, na shirkatlar biladi.

yoki oyog'i jarohatlanishi, shilinishi va shunga o'xshash falokat orttirib olishi uchun yetarli sabablar bor.

Ayrimlar kichkintoylar shovqiniga toqatsiz

Bundan chamasi 3-4 yil ilgari Bektemir tumanining "Suvsoz" dahasidagi ta'mirlanayotgan bolalar maydonchasida sakkiz yashar bolakayning ustiga atraksion ag'anganidagi bu shumxabarni falokat-da endi, atay bo'lmagan-ku, deya sovuqonlik bilan qabul qilganlar bo'lgan.

O'shanda nobud bo'lgan murg'ak bolasing suratini qorayib ketgan barmoqlari bilan siqib olgan, bor g'ussasi ko'kimtir qovog'iga iz tushirgan otaning mungli ko'zida bunga kim aytdi, degan sassiz chiqirgini ko'pchilik qator men ham eshitib, o'zimni eshitmaganga solgandim. Ammo yaqinda bog'cha muhitiga endi moshlayotgan jiyvanim vorkaut maydonchasida barmog'ini kesib olgach, bu soyadagi og'riq ko'laminu butun vujudim bilan his qildim.

Bolalar sport va o'yin maydonchalarini qurish, ularidan foydalanish va xavfsizligi bilan bog'liq qonun hujjatlarini monitoringi sohada "ishkallik"lar yetarli ekanini ko'rsatadi. Mavjud hujjatlar ijro uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy mazmunda bo'lgan uchun ham turli ekologik dasturlardan tortib, aholi



O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqovanning 70 yilligiga

BU NOTINCH DUNYOLARGA TINCHLIKDAN KO'YLAQ TIKSAM...



Muxtasar TOJIMAMATOVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



masalalarda ham ustozlik qildi. "Farg'ona haqiqati" gazetasiga bosh muharrirlikka tavsiya qilib, mehnatlarim yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan inson ham ustozim Enaxon Siddiqova edi.

Farg'onaga bo'lgan xizmat safarimiz chog'ida shoir Yaqubov Nizomiddinova bizga ustoz tufayli hayot sinovlaridan omon chiqqani haqida gapirib bergandi:

— 2016-yil sog'lig'im uchun sinovli vaqt bo'ldi. Bir emas, uchta kasallikdan aziyat chekdim. Har oy shifoxonada davolanib chiqaman. Meni tekshirgan onkolog zudlik bilan operatsiyaga buyurdi. Viloyat markazida tanishlarim yo'qligi uchun o'ylandim. Nihoyat ongimda yongan chiroqdan ko'nglim yorishdi: axir mening ustozim Enaxon Siddiqova bor-ku! Abgor ahvolumga beparvo qaramasa kerak... Bir paytlar ishsiz va uysiz yurganimda ham ishga joylab qo'ygan, o'z uyidan joy bergan edi...

Darhol yo'lga tushdim. Ustoz bilan ko'rishib, ko'zim achchiq yoshga to'ldi. Enaxon opa dardi holimni eshitgach, "Operatsiyaga shoshilmang, siz avval professor Ibrohim Asqarovga uchrashasiz", dedi bamaylixotir. Opaning so'zidan xotirjam tortdim. Bejiz shunday demagan ekan. Professor operatsiyasiz davolashini aytganida dunyo ko'zimga shunchalar yorug' ko'rindiki... Enaxon opa men kabi yuzlab ijodkorlarga ana shunday g'amxo'rlik va mehr bilan qaragan. Biz, shogirdlarini nihoyatda avaylab, ardoqlagan.

Ezgulik zanjiri baxsh etgan kuch

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'quvchilarining yutuqlaridan quvonganimizda O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqovanning maktab poydevorini qo'yish pallasidagi yugur-yugurlari, hayajonlari, sevinchlari yodimizga tushadi. Bugun ushbu maktab o'qituvchilari Enaxon opaning mehr-u muhabbati, saboqlari, hikmatlari va ibratli ishlarini o'ziga dasturilamal qilib olgan. Ayniqsa, ushbu ijod maskani direktori, Enaxon opaning suyuqlik farzandi Nigoraxon Mannopovanning ustoz haqidagi so'zi, xotirasi biz, shogirdlarning ustoz siyosini yana bir ko'rish ishtiyogimizni, sog'inimizni yanada oshiradi:

— Onaginam asl ustozim edi. Dehqonchilik, bog'bonlik, tikuvchilik, ospazlik, notqlik, hilm, halollik, o'zgarlar dardiga hamdardlik, o'zni fido qilish ilmini amalda ko'rsatib, namuna bo'lgan hayot muallimam. Yana kechirish, sabrmatonat, shijoat, jasorat, ko'ngil olish ilmini yitdi qahramonim. Musofirlikda besh bolani yetti muchasi sog'lom, aqli, imoni butun bo'lishi, halollikda o'stirish uchun o'zini chor hunarga, o'tga-suvga urgan, tinim bilmagan mehnatkashim. Jon tomiri, yetti pusti'dagi toza qonni halollagan, pokiza fitratni tiyatimizga o'tkaza olgan munosib merosboshim. Talato'plar, fitnalar ichida ham ajdodlardagi oliynasablikni ayol qalbi, yuragi bilan mardonavor saqlab qola olgan El Onasi. Dard, iztiroblarni qalam bilan yenggan, ko'ngillarga so'zdan malham tizgan



so'z zargarim. Shuncha kuch, matonat, jasoratni qayerdan oldirdi? Bu quvvat manbai nimadan, deya so'rayverardim. Bildimki, pok botinidagi ezgulik zanjir reaksiyasidek, yangi kuch baxsh etaverarkan...

Yuraklarni zirqiratgan qo'shiq

Bola ko'nglim gullatib, Hayratga do'nar olam. Supachada o'tirib, Do'ppi tikarlar onam.

O, bolalik qaytsa-yo, Onam alla aytasa-yo, Erkalab uyg'otsa-yo, Do'ppi tikarlar onam...

Kuz gullari — yomg'ir nafasli, shamol isli parilar...

Yangi yil arafasi edi. Ustozga telefon qilib, "Gazetaga bayramona ruhdan yaxshi bir badia yozib beraman", degan gaplarini eslatdim. "O'zim aylanay, esingizda ekan-a, albatta, yozib beraman. Faqat bir oz mazam yo'q, shamollabman, shekilli. Agar ulgurmasam, ogohlantirib qo'yarman", dedi hazin ovozda. Men g'ofil ham uning bir oz shamollaganiga ishonimda-da, "Opajon, albatta, ulgurmasiz, unday demang. Maqolangizni kutaman", dedim erkalki qilib... Oradan ikki hafta o'tmay shum xabarni, ularni qiyonagan xastalik haqida eshitdim-u... afsus-nadomat o'tida qovrilim. Hayotimning eng qiyin, mashaqqatli onlarida Enaxon opaning qaddimini tiklash, ruhimni ko'tarish uchun qilgan sa'y-harakatlari ko'z o'ngimdan o'tdi: ishsiz, uysiz yurgan kunlarim... O'sha zamoning zayli, qarindoshchilikka oid bema'ni qonunlari tufayli hech qayerga ishga qabul qilinmayotgan, tanishlarim yordam berish o'miga "chega ketishim"ni ta'kidlayotgan paytlar edi. Bir kuni ijtimoiy tarmoqqa kuz fasli haqidagi she'rlarimni joyladim. Oradan ikki kun o'tgach, Enaxon opa qo'ng'iroq qildi: "Kuz gullari — yomg'ir nafasli, shamol isli parilar ular... Muxtasar, tabriklayman, juda chiroyli she'rlar yozibsiz. Bir turkum qilib tayyorlab jo'nating, gazetada e'lon qilamiz", dedi. O'sha paytdagi quvonchimni bir ko'rsangiz edi. She'rlarim chop etilayotgani uchun emas, Enaxon Siddiqovadek ayol menga qo'ng'iroq qilib hol so'ragani, shuncha taqirlarga qaramay, ijodimga e'tibor ko'rsatayotganidan juda ta'sirlangandim. Lekin baribir she'rlarim gazetada nashr qilinishiga shubham bor edi.



ENAXON SIDDIQOVA
SIZNI DEDIM...

— Dostonni ulkan bir qo'shiqqa mengzash mumkin, — deydi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli adabiyotshunos Suvon Meli. — Asar xos bir musiqaviy ohang bilan oqadi, jaranglaydigan, bunday musiqaviylikni paydo qilgan kuch, vosita, shubhasiz, xalqimiz dahosi yaratgan "Oq terakmi, ko'k terak, Sizdan bizga kim kerak?" degan quyma misralardir. Doston aynan ushbu so'zlar bilan boshlanadi. Dostonning she'riy qismlarida ham hazin, ham o'yunchan, ham sokin, ham shiddatli bir kuy ong-shuurimizda yangrab-jaranglab turadi. Bunda bolalar o'yinida aytiladigan naqorat-ochqich vazifasini bajaradi.

Subhatdoshimiz ta'kidlaganidek, dostonida yangrab turadigan yuraklarni zirqiratadigan bir qo'shiq, mungli kuy hayotiy subhatlar va voqeiklar asosida o'z notasini birma-bir topib boradi. Masalan, mana bu subhatni eshitganda

VATAN va ONA

Vatan ko'ksim ichida Bir qush mangu sayroqdir. Ruhimning mehrobiga Xudo yoqqan chiroqdir.

Har cho'pi o'zi hikmat, Har zarrasi bir hadis. Qubbalar o'qir oyat, Ustunlari mudarris.

Bolasiyda erkalar Quchoq'arg'imchoqdir. Chuchmomalar o'pkalar, Sog'inchi qizg'aldoqdir.

Shohimardon tog'ida O'ynoqlaydi ohular. Ilinar bulog'idan Menga farishta suvlar.

Oqib kelar qiqirlab, Yalpiz, momaqaymoqlar, Jannat ariqlaridan Gul, qalampirmunchoqlar.

Beshigimning boshiga Haq qo'rgan nurli kitob. Vatan tun-kun qoshimda Charaqlab turgan o'ftob.

Ko'z yummas, duolardan, Mehridan palak tikar. Bu notinch dunyolarga Tinchlikdan ko'ylak tikar.

Joning tupchagidan Yoqqan qora o'choqdir — Dunyo onam yurakda Qovurgan oq bodroqdir.

Tandirlari uzatar Shirmoy noni qaymoqday, Vatan yorug' suratig Onam ochgan quchoqday!

Enaxon SIDDIQOVA, O'zbekiston xalq shoiri

insonning asl qiyofasi u chin dunyoga rixlat qilganidan keyin namoyon bo'ladi, deyishadi. Har gal she'rlarini yaratganida hayotdagi tutumingiz, an'alaringiz va odatlaringizga uyg'un misralardan yayrayman: Ko'z yummas, duolardan, Mehridan palak tikar. Bu notinch dunyolarga Tinchlikdan ko'ylak tikar. Ha, siz Yaratganning oldida yozgan so'zi ham, amali ham bir ijodkor bo'lishga intiladingiz. El-yurt mehri, e'zoziga, e'tirofiga sazovor bo'ldingiz. Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilgan suyuqlik farzand sifatida bizga ibrat ko'rsatdingiz. Ruhingiz shod bo'lsin, ilohim!

O'zbek matbuoti, yurtimizdagi elektron ommaviy nashrlardan biri 2019-yil shunday yozadi: "20-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda senator Enaxon Siddiqova to'ylar haqidagi qarorni targ'ib qilish va ijrosini ta'minlashda har bir viloyatga alohida yondashish haqida gapirib, vodiy to'ylarining fojiasiga to'xtaldi: — Vodiy to'ylarining juda og'ir tomonlari bor. Qiz chiqarayotgan tomon kulfatning ichida qolib ketadi. Yaqinda bir oqsoqol mening yonimga kelib, "To'y haqida qaror qabul qildinglar, lekin hech narsa o'zgarmadi. Olti qizim bor. Uch qizimni chiqardim. Yana uchta qizim bor. Avval uchta qiz chiqarganni jannati deyishardi, men "do'zaxi" bo'lib turibman. Yana uchta qizni chiqarish uchun umrim yetadimi, yo'qmi... Qiz chiqaraman deb, o'lib ketamanni?" degan gaplarni soqollariga ko'z yoshlari tomib aytdi".

Ha, senator Enaxon Siddiqovaga dardini aytadigan, u orqali o'z muammolariga yechim izlaydigan insonlar ko'p edi. Yana bir jihati shundaki, opa ijodiy uchrashuvlarda ham nihoyatda sezgirligidan yuragida dardi bor xotin-qizlarni tez topib olar, ularga she'r o'qib berishdan oldin ishi, ro'zg'ori, bolalari, mol-holi va ekin-tiklari haqida savol berar, muammolarini ochiq aytmaguncha tinchimasdi. "Ayollarda andisha kuchli, o'zing so'ramasang, "ich-etini yeb", muammoni gazak oldirib yuraveradi. Shu bois, muammosi borligini sezib qolsam, o'sha masalaning ildizini topmaguncha tinchimayman, singlim. Undan keyin she'r o'qisak yarashadi", derdi kulib...

"Bitta ekan Farg'onaning Enaxoni"

"Xayolim suvratida hovlimiz etagidagi loyshuvoq kulbaga yugurib chiqqan qizg'aldoqlar, o'ftobro'yada har kuni chumchuq bilan o'ynashadigan olachipor ilon, onam o'rib qo'ygan sochlarimda selkillagan tolpopuk, onamning qalampirmunchoq aniqan bag'ri (qandoq baxtli ekan o'sha kunlarim) bugun xuddi ertakka o'shaxaydi".

Bolalikning yorqin chizgilari, sog'inchlari kimning ham yuragini o'rtamaydi, jizillatmaydi deysiz... O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova haqida yozishga shaylangan qalamim beixtiyor "Ona haqida doston"dagi "xayol suvratini" yana bir bor ziyorat qilgisi keldi. Chunki mening ham ustoz haqidagi xotiralarim bevosita mana shu beg'ubor bolalik damlaridan boshlanadi. Chunki ilk she'rlarimni qay bir davraga chiqib o'qiy boshlasam, davradagilar "Mana, Farg'onamizning shoirlari safiga yana bir yosh Enaxon kelib qo'shilyapti", deya alqashar, men bu so'zlarni eshitganimda shoiraning o'zidan ham ismini juda yaxshi ko'rib ketar edim. Chunki ko'proq buvisiyu enalari qo'lida tarbiyalangan, ularning rivoyatlarini yodlaydigan yurab, halvolaridan tatib ulg'aygan erka qizcha edim-da... Bejiz qalbimiz qadriyatlarimizga tutash bu mehr rishtalarini ilg'amagan ekan. Vaqt o'tib Enaxon Siddiqova Farg'onadagi har bir momoyu buvilarning, onalari opa-singillarning suyangan mehr chashmasiga — Enasiga aylandi. Zero, ustoz shoirimiz Bahodir Iso aytganidek, "Bitta ekan Farg'onaning Enaxoni".

— Talabalik chog'larimda ustozimiz Yo'ldosh Sulaymon boshchiligidagi Muqimiyning "Sayohatnoma"si bo'ylab viloyatdagi jamiki qalam ahli an'anaviy ijodiy yurishda qatnashardik, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, shoiri Gulbahor Saidg'aniyeva.



o'sha-o'sha kamtar va kamsuqum o'zbek ayoli, mehribon ustoz maqomini saqlab qoldi. Enaxon opa menga nafaqat ijodda, balki siyosiy-huquqiy



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574. 41369 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Aljonov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy